O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 29 - iyundagi 286841 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Ma’rifat MFY hududida “Ko'p qavatli turar joy binolari 5 qavatdan yuqori (7 qavat)” bino inshootlari qurilishi (I bosqich).
Buyurtmachi: YUAN TONG MEGA CONSTRUCTION MCHJ QK
Bosh loyihachi: "ME`MOR ARCH CONCEPT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: YUAN TONG MEGA CONSTRUCTION MCHJ QK
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 130137

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi 12.08.2025-yilda rasmiylashtirilgan №YU-1286395-sonli Bayonnoma.

1.2. Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 02-oktabrda berilgan №1703-1703232-240264-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan va bosh loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasidagi 2025-yil 18-sentabrda tuzilgan №36/25-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 09-iyundagi №298925281-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyiha bosqichida to'liq loyixa smeta xujjatlari.

2.2. Ruhsatnomalar va kelishuv xujjatlar jamlanmasi, umumiy tushuntirish kitob tarzida.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari reestr raqami №226060862-sonli «O’ZGASHKLITI » MChJ tomonidan 10.06.2026-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C li qurilish tumani;
Qordan tushadigan yuk - 50 kg/mI;
Shamolning ta'sir kuchi - 38 kg/mI;
Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati + 33 C;
Maydon seysmikligi 8 – balli.

3.2. Bosh reja:

Loyihaviy “Ko'p qavatli turar joy binolari 5 qavatdan yuqori (7 qavat)” bino inshootlari qurilishi Paxtaobod tumani, Ma’rifat MFY hududida joylashgan. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan — bo’sh yer maydoni bilan chegaralangan, sharq tomondan — tadbirkor yer maydoni bilan chegaralangan, janub tomondan — avtomobil yo’li bilan chegaralangan, g’arb tomondan — kollej hududi bilan chegaralangan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Ishchi loyiha 3 bosqichdan iborat bo’lib, bosh rejaga asosan 1-bosqichda quyidagi bino va inshootlar joylashgan: loyihaviy yetti qavatli A1, A2 va A3-blok turar joy binolari va mazkur turar joy bloklariga tegishli bolalar maydonchasi (300.0 m2), chiqindilar yashigi, avtoturargoh (80 mashina-o’rinli) va YOXB yashigi. Obodonlashtirish ishlari yuzasidan beton yo’lak, temirbeton lotok, asbest quvur, maysa o’stirish ishlari, shrenk archasi va butasimon archa o’tqazish ishlari ko’zda tutilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Hududning umumiy maydoni – 19 540.0 m2/100%;
Hududning umumiy qurilish maydoni – 8 858.24 m2/45.33%
(shundan 1-bosqich umumiy qurilish maydoni - 3969.70 m2 ni tashkil etadi);
Yo’l va yo’laklar maydoni – 4 785.76 m2/24.50%;
Ko’kalamzorlashtirish maydoni – 5 896.0 m2/30.17%.

3.3. Yong’in xavfsizligi:

Loyiha hujjatlarida qabul qilingan yong‘in xavfsizligi tadbirlarining qisqacha tavsifi.

Taqdim etilgan loyihalarga ko’ra 3 ta blokdan (A1, A2 va A3 bloklar) iborat 7 qavatli turar joy binolari qurilishi rejalashtirilgan (1-bosqich). Bosh rejaga ko’ra loyihalash ishlari 3-bosqichda olib borilishi belgilangan:

1-bosqich: A1 blok: 7 qavatli, yerto‘la qavat va 1-qavat qisman savdo zali, 1-7-qavatlar yashash kvartiralari hamda +texnik qavati joylashtirilgan bo‘lib, bino to’rtburchak shaklda rejadagi o‘lchamlari 19,8 x 36,0 m, balandligi +20,55 m. Tomga chiqish umumiy zina katak orqali.

A2 blok: 7 qavatli, yerto‘la qavat va 1-qavat qisman savdo zali, 1-7-qavatlar yashash kvartiralari hamda +texnik qavati joylashtirilgan bo‘lib, bino to‘rtburchak shaklda rejadagi o‘lchamlari 21,35 x 26,1 m, balandligi +20,55 m. Tomga chiqish umumiy zina katak orqali.

A3 blok: 7 qavatli, yerto‘la qavat va 1-qavat qisman savdo zali, 1-7-qavatlar yashash kvartiralari hamda +texnik qavati joylashtirilgan bo‘lib, bino to‘rtburchak shaklda rejadagi o‘lchamlari 15,40 x 26,0 m, balandligi +20,55 m. Tomga chiqish umumiy zina katak orqali (yer sathidan eng yuqori qavatning ochiladigan derazasi (eshigi)ning pastki chegarasigacha).

Ma’lumot uchun:

Binoning balandligi yuqori texnik qavatni hisobga olmagan holda yuqori qavatning joylashish balandligi bilan belgilanadi. Qavatning joylashish balandligi yong‘in o‘chirish

mashinalari uchun o‘tish yo‘li sathidan tashqi devordagi ochiladigan deraza (eshik) ning pastki chegarasigacha bo‘lgan masofa bilan belgilanadi (ShNQ 2.01.02-04, 5.13-b.).
Konstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II; konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – S0; funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F 1.3.
Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:
Binoga yetib kelish va atrofida aylanma yo‘llar; evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos; binoning tashqi (issiqlik izolyatsiyasi mineralvata) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi; yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga, 1 chi qavatda umumiy zina katak yong‘inga qarshi devor bilan ajratilgan; yerto‘la qavatda oyna xandaklar (okna priyamki); yuqori qavatlardan evakuatsiya L1 turdagi zina kataklar orqali; yuqori qavatlarda har bir xonadonda tashqi ochiq balkon (lodjiya)lar; evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan, o‘z-o‘zidan yopiladigan moslama (dovotchik) bilan jihozlangan; tomga chiqish ichki umumiy zina katak orqali; avtomatik yong‘in signalizatsiyasi; yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi; evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo; avtomatik yong‘in signalizatsiyasi signallarini qabul qilish-nazorat qurilmalarini markazlashgan holda kechayu kunduz navbatchi xodimlar bo‘ladigan xonaga o‘rnatilishi.

3.4. Me’moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihaviy yetti qavatli “A1 blok” turar joy binosi – yetti qavatli, yerto‘lali, turar joy binosi to’g’ri to’rtburchak shaklida, ustunli(pilonli) quyma temirbeton konstruksiyada, rejada o`qlari bo`yicha o`lchami 36.00x19.80 m. Bino yerto’la qavatining poldan shiftgacha bo’lgan balandligi h=3.04 m, birinchi qavatining poldan shiftgacha bo’lgan balandligi h=3.64 m, qolgan qavatlarning poldan shiftgacha bo’lgan balandligi esa h=2.74 m ni tashkil etadi.
Binoning yerto’la qavatida zinapoya - xoll, suv jixozlari xonasi, 5 donadan - savdo ombori, hodimlar xonasi va sanitar tugun xonalari joylashgan.
Binoning 1-qavatida 4 dona uch xonali xonadon hamda zinapoya - xoll, lift, yo’lak, elektroshit, 5 donadan - savdo zali, hodimlar xonasi va sanitar tugun xonalari joylashgan.
Binoning 2-qavatida 4 dona uch xonali, 4 dona ikki xonali va 1 dona bir xonali xonadon, lift, zinapoya - xoll va yo’lak joylashgan.
Binoning 3-7-qavatlari oralig’idagi har bir qavatda 4 dona uch xonali, 4 dona ikki xonali, 1 dona bir xonali xonadon, lift, zinapoya-xoll va yo’lak joylashgan.
Uch xonali xonadonlarda xoll-oshxona, yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, sanitar tugun va balkon joylashgan.
Ikki xonali xonadonlarda xoll, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, garderob, sanitar tugun va balkon joylashgan.
Bir xonali xonadonlarda xoll va oshxona, yotoqxona, sanitar tugun va balkon joylashgan.
Bundan tashqari 2-qavatda joylashgan E, F va G xonadonlarda terrasa ham re’jalashtirilgan.
Xonadonlar maydoni ShNQ 2.08.01-24 ning 4-bob, 2-paragrafida joylashgan tegishli bandlar talablariga asosan ishlab chiqilgan.
Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 729.63 m2;
Umumiy maydoni – 4 949.14 m2;

Yashash maydoni – 2 078.66 m2;
Qurilish hajmi – 21 378.0 m3;
Xonadonlar soni – 58 dona.

Loyihaviy yetti qavatli "A2 blok" turar joy binosi – yetti qavatli, yerto'lali, turar joy binosi L shaklida, ustunli(pilonli) quyma temirbeton konstruksiyada, rejada o`qlari bo`yicha o`lchami 26.10x21.35 m. Bino yerto'la qavatining poldan shiftgacha bo'lgan balandligi h=3.04 m, birinchi qavatining poldan shiftgacha bo'lgan balandligi h=3.64 m, qolgan qavatlarning poldan shiftgacha bo'lgan balandligi esa h=2.74 m ni tashkil etadi.

Binoning yerto'la qavatida zinapoya, suv jixozlari xonasi, 3 donadan - savdo ombori, hodimlar xonasi va sanitar tugun xonalari joylashgan.

Binoning 1-qavatida 1 dona uch xonali, 1 dona ikki xonali, 1 dona bir xonali xonadon hamda zinapoya, lift, yo'lak, elektroshit, 3 donadan - savdo zali, hodimlar xonasi va NBSh uchun sanitar tugun xonalari joylashgan.

Binoning 2-qavatida 3 dona uch xonali, 3 dona ikki xonali xonadon, lift, zinapoya va yo'lak joylashgan.

Binoning 3-7-qavatlari oralig'idagi har bir qavatda 3 dona uch xonali, 3 dona ikki xonali xonadon, lift, zinapoya va yo'lak joylashgan.

Uch xonali xonadonlarda xoll, mehmonxona-oshxona, yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, sanitar tugun va balkon joylashgan.

Ikki xonali xonadonlarda xoll, yotoqxona, mehmonxona-oshxona, garderob, sanitar tugun va balkon joylashgan.

Bir xonali xonadonlarda xoll, mehmonxona-oshxona, yotoqxona, sanitar tugun va balkon joylashgan.

Bundan tashqari 2-qavatda joylashgan B, D va E xonadonlarda terrasa ham re'jalashtirilgan.

Xonadonlar maydoni ShNQ 2.08.01-24 ning 4-bob, 2-paragrafida joylashgan tegishli bandlar talablariga asosan ishlab chiqilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 527.16 m2;
Umumiy maydoni – 3 580.57 m2;
Yashash maydoni – 1 627.0 m2;
Qurilish hajmi – 12 725.0 m3;
Xonadonlar soni – 39 dona.

Loyihaviy yetti qavatli "A3 blok" turar joy binosi – yetti qavatli, yarim yerto'lali, turar joy binosi to'g'ri to'rtburchak shaklida, ustunli(pilonli) quyma temirbeton konstruksiyada, rejada o`qlari bo`yicha o`lchami 26.00x15.40 m. Bino barcha qavatlarining poldan shiftgacha bo'lgan balandligi h=2.74 m ni tashkil etadi.

Binoning yerto'la qavatida zinapoya – 4 dona bir xonali, 1 dona ikki xonali xonadon, zinapoya-xoll, lift, yo'lak, elektr jixozlari xonasi, ombor va suv jixozlari xonasi joylashgan.

Binoning 1-qavatida 6 dona bir xonali, 1 dona ikki xonali xonadon hamda zinapoya - xoll, lift, yo'lak joylashgan.

Binoning 2-7-qavatlari oralig'idagi har bir qavatda 6 dona bir xonali, 1 dona ikki xonali, lift, zinapoya-xoll va yo'lak joylashgan.

Ikki xonali xonadonlarda xoll, sanitar tugun, bolalar xonasi, yotoqxona, oshxona va balkon

joylashgan.
Bir xonali xonadonlarda mehmonxona-oshxona, yotoqxona, sanitar tugun va balkon joylashgan.
Xonadonlar maydoni ShNQ 2.08.01-24 ning 4-bob, 2-paragrafida joylashgan tegishli bandlar talablariga asosan ishlab chiqilgan.
Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 412.91 m2;
Umumiy maydoni – 3 234.70 m2;
Yashash maydoni – 780.0 m2;
Qurilish hajmi – 11 602.80 m3;
Xonadonlar soni – 54 dona.
A1, A2 va A3 bloklar uchun umumiy bo'lgan ko'rsatkichlar va ishlar.
Ichki pardozlash ishlari:
- Bino romlari, vitrajlari va framugalari barchasi bitta kamerali steklopaketdan iborat bo'lib, profillari PVX dan tayyorlanadi, tokchalari PVX doskadan tayyorlanishi re'jalashtirilgan. Yerto'la qismi barcha eshiklari, bino zinapoya qismiga kirish eshiklari va xonadonlarga kirish eshiklari barchasi mineral tola orqali izolyatsiya qilingan temir eshiklardan tayyorlanadi. Xonadonlar ichki eshiklari MDF ashyosidan tayyorlanishi loyihada ko'zda tutilgan. Balkonlarga chiqish eshiklari ikkita kamerali steklopaketdan iborat bo'lib, profillari PVX dan tayyorlanadi.
- Yerto'la qismi va birinchi qavat ichki devorlarida sement-oxakli suvoq, gipsli quruq aralashmali shpaklevka va emulsiyaga asoslangan suvbo'yoq ishlari, shift qismida esa gipsli quruq aralashmaga ega shpaklevka ishlari ko'zda tutilgan. Xonadonlar ichki devorlarida va teshiklar ichi qirralarida sement-oxakli suvoq, gipsli quruq aralashmali shpaklevka va emulsiyaga asoslangan suvbo'yoq ishlari, shift qismida esa gipsokarton qoplash ko'zda tutilgan. Xojatxona ichki devorlarida va teshiklar qirralarida shiftgacha keramogranit, shift qismida esa plastik qoplash re'jalashtirilgan.
- Yerto'la qismi xonalari, birinchi qavat pollari, bino barcha zina katagi hamda lift yo'laklari keramogranit plitkasi bilan qoplanadi. Xonadonlar yashash xonalari pollarida tarket, xojatxona, balkonlar va bino yo'laklari pollarida keramik plitka qoplanishi ko'zda tutilgan.
Tashqi pardozlash ishlari:
- Bino poypesh qismi tashqi pardozlash ishlarida "Kabanchik" nomli keramik plitka qoplash ishlari re'jalashtirilgan. Tashqi devorlar bazaltga asoslangan 50 mm qalinlikdagi issiqlik izolyatsiya plitasi bilan qoplangan hamda "Travertin" dekorativ suvog'i ishlari ko'zda tutilgan. Zina va panduslar yuzasi silliqlangan yuzaga ega keramik plitka bilan qoplangan. Karnizlar tunikafon orqali qoplanishi ko'zda tutilgan.
- Bino tomlari – yog'och konstruksiya asosida profnastil orqali qoplanadi.
- Zinalar, panduslar va balkonlar tutqichlari – temirdan individual holatda tayyorlanadi.
Bino quyidagi konstruktiv elementlardan iborat: Poydevor tagiga beton qorishma - yaxlit quyma beton, h=l00mm li. Poydevor – yaxlit (сплошной) va tasmasimon quyma temirbetondan. Poydevor devorlari - quyma devorlar qalinligi 300 mm. Ustunlar (pilona) - quyma temir betondan. Balka (rigel) - quyma temir betondan. Orayopmalar va tomyopma -

quyma temir beton, qalinligi 180 mm. Pardadevor - pardadevorlar (перегородки) gazoblokdan 150 mm. Qalinligi 250 mm li devorlar va 150, 250, mm qalinlikdagi parda devorlar metal ustunlar va metal sarbasta bilan kuchaytiriladi. Tashqi devorlar(to'ldiruvchi) - qalinligi 250 mm li gazoblokdan iborat va har ikki qatorda bo'ylamasiga SG-1 setka to'shaladi. Gazoblok(avtoklaf) zichligi 600kg/m3. Tashqi devorlarning issiqlik himoyasi binoning tashqi devorlari bazalt tolali PPJ 50 plitalari bilan qoplanadi. Zinapoyalar - quyma
temirbetondan. Lift shaxtasi - quyma temirbetondan. Tom - tom tekis yopma(мягкая кровля). Tom yompasining issiqlik himoyasi - mineralvatadan 100 mm. Tomdan suv tushirish quvurlari - (ichki suv quvuri) ruxlangan po'latdan qilinadi, po'lat materiali qalinligi 0.51 mm. Quvurlar dumaloq shaklli, 150 mm bo'lib tik, vertikal to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi kerak. Quvurlar yer ostidagi suv chiqarish quvuriga ulanadi. Tashqi derazaosti(наружный подоконный слив) - ruxlangan po'latdan qilinadi, po'lat materiali qalinligi 0.51 mm tashqi deraza osti rangi bino fasadiga hamohang bo'lishi kerak. Otmostka - shag'al tushamali quyma beton quyiladi, kengligi 1,5 m.

Bundan tashqari 1-bosqich ishchi loyixa-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ish turlari.

- Issiq suv ta'minoti manbai xonalardagi elektr suv isitish uskunalaridan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi;
- Energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va obyekt energiya resurslarini zamonaviy "aqlli" o'lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo'yicha talablar ko'zda tutilgan;
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya'ni, quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan;
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga 50 mm qalinlikdagi mineral vata(bazalt) qoplash ko`zda tutilgan;
- Tom yompasining issiqlik himoyasi – 100 mm qalinlikdagi mineral vatadan;
- Pol issiqlik qatlami – 50 mm qalinlikdagi penopleksdan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironligi bo`lgan shaxslar uchun avtoturargoh re'jalashtirildi va maxsus belgilarni o`rn atish rejalashtirildi;
- hudud bo'ylab ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoning kirish qismida me'yoriy qiyalikka ega bo'lgan pandus tutqichlari bilan rejalashtirildi;
- zinalar chekka tutqichlari orasida 2.50 m dan ortmagan masofada tutqichlar re'jalashtirildi;
- sirpanishga qarshi alyumin profil;
- ko'zi ojizlar uchun ovozli ma'lumot beruvchi;
- devorga o'rnatilgan Brayl alifbosidagi axborot taxtasi;
- nogironlar aravachasini evakuatsiya qilish re'jasi;

- kirish eshigi oldida mnemonik diagramma;
- nogironlar uchun taktil piktogramma, kirish eshiklariga sariq rangda kontrast doira, kontrast lenta va boshqa qurilmalar;
- bino birinchi qavati yo’laklarida ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- do’kon xonalarida NBSh uchun maxsus jixozlangan, o’lchami 1.65x2.20 m dan kam bo’lmagan xojatxonalar;
- binoning yuqori hamda 0.00 belgilariga ko’tarilish uchun lift re’jalashtirildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 02-oktabrda berilgan №1703-1703232-240264-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta’minoti “Andijon suv ta’minoti” AJ ning 2025-yil 15-noyabrdagi №31-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta’minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 2025-yil 13-noyabrdagi №03232127880-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.
- Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig’iga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari loyihaning ikkinchi bosqichida ko’zda tutilgan.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Binolarni isitish loyihalanayotgan qozonxona orqali amalga oshiriladi. Isitish tizimi ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo’l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Binolarga xo’jalik-ichimlik, oqava suv va issiq suv ta’minoti tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi elektr suv isitish uskunalaridan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyixalangan bo‘lib tashqi oqova suv tarmog‘iga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Elektr taminoti:

Ushbu elektr qismi ShNQ 2.04.17-2019, ShNQ 2.08.01-2024, ShNQ 2.01.05-2024 va PUE ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi. Elektr ta'minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar joy binosi II toifali iste'molchilarga tegishli.

Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining loyihaviy yuklari, shuningdek kirishdagi loyihaviy yuklar ShNQ 2.04.17-2019, 2-jadvalga muvofiq 5-bandning eslatmalarini hisobga olgan holda, har bir xonadonning solishtirma yukiga va kvartiralar soniga qarab belgilanadi.

Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida VRU1-15-30 UXL4 seriyasi qabul qilindi.

Turar joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518 tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi.

Umumiy maishiy iste'molchilarni hisobga olish VRU ning kirish tarqatish qurilmasiga o'rnatilgan elektron hisoblagich orqali amalga oshiriladi.

Har bir qavatda o'rnatilgan ShE, EX-18 tipidagi elektr hisoblagichlari va UZO tipidagi himoya uzish qurilmalari bilan birgalikda qavat shiti sifatida qabul qilinadi.

Energiya tejamkorlik:

Bino tomida quvvati 30kVt bo’lgan quyosh fotoelektr stansiyasi o’rnatish ko’zda tutilgan.

Kuchsiz to’k:

Ushbu aloqa qismi QMQ 2.04.20-22 va ShNQ 2.08.01-2024 ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi. Loyixada binoning umumiy aloqa taminoti chizmalari shartli ravishta joylashtirish amaldagi meyoriy qoidalarga binoan tayyorlandi. Binoning aloqa tarmog'i telefon-internet va televideniya tarmoqlarini o'rnatish bilan ta'minlangan.

Telefon:

Telefonlarni o'rnatish bino yashash uyining kirish yo'lagiga “8 VOLOKON G.652.D” optik tolali kabelini olib kirish bilan boshlanadi. Uyning kirish yo'lagiga kirgan kabellar devorga o'rnatilgan kommutatsiya shkafidagi aloqa tarqatish kommutatoriga ulandi. Tarqatish kommutatoridan chiquvchi UTP cat 5e abonent kabellari yerto'ladan mansard-qavatgacha qavat shitlaridan tarqatiladi. Xonadonlarga o'rnatilgan telefon rozetkalari tarqatish kommutatoridan UTP cat 5e abonent kabeli orqali ulanadi. Telefon rozetkalari poldan 1.5m balandlikda devorga o'rnatiladi. Xonadonlarga telefon o‘rnatish ishlari “Andijon – Telekom” OAJ kuch va vositalari tomonidan abonentlar talabi va mablag‘lari hisobidan amalga oshirilmoqda.

Televideniya:

Eshittirishlarni qabul qilish uchun ATKG tipidagi jamoaviy foydalanish uchun televideniya antennalari o'rnatilgan. Televideniya antennasi tomda o'rnatilgan. Antenna kuchaytirgichi bo'lgan LHA-121 ni har bir qavatga o'rnatilgan ajratish qurilmalariga PK 75-9-12 markali magistral kabeli orqali ulab chiqiladi. RK-75-9-12 magistral kabeli shaxtalarda amalga oshiriladi. Xonadonlarga o'rnatilgan televideniya rozetkalari ajratish qurilarmalaridan PK-75-4-12 markali abonent kabeli orqali ulanadi. Televideniya rozetkalari poldan 1.5m balandlikda devorga o'rnatiladi.

Domofon:

Ko‘p qavatli turar joy binosida kirishni nazorat qilish va aholi xavfsizligini ta’minlash maqsadida domofon tizimi o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan. Tizim kirish paneli, kvartiralardagi abonent qurilmalari, quvvat bloki va elektr qulfdan iborat. Tashrif buyuruvchi kirish paneli orqali kerakli kvartira bilan aloqa o‘rnatadi. Kvartira egasi domofon qurilmasi orqali tashrif buyuruvchi bilan gaplashib, zarur bo‘lganda eshikni masofadan ochishi mumkin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 09-iyundagi №298925281-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertiza markazi Andijon viloyati filialining 2025-yil 20-noyabrdagi №01-02/03-7110-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **42 993 679 714** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 239 673 897** so'mga oshirilib,

44 233 353 611 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **36 033 791 257** so'm
Asbob-uskunalar: **3 460 274 467** so'm
QQS: **4 739 287 887** so'm
6.1. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.
6.2. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.
6.3. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.
6.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.
6.5. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.
6.6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.
6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.
6.8. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.
6.9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang'ich hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrad korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.
6.10. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati

hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 09-iyundagi №298925281-sonli xulosasida arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.11. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, ob’ekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.12. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Ma’rifat MFY hududida “Ko'p qavatli turar joy binolari 5 qavatdan yuqori (7 qavat)” bino inshootlari qurilishi (I bosqich), ob'ektini kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Axmedov Rustambek Xamidovich, Egamov Javlon Naimjanovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert **SOLIYEV JOXONGIR MARIPJON O‘G‘LI**